

NUTQ O'STIRISH VA BO'SH O'ZLASHTIRUVCHI O'QUVCHILAR USTIDA ISHLASH

Choriyeva Dilafruz Mengboevna,
*Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi 91-
umum ta'lif maktabining
bosholang'ich fani o'qituvchisi.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiyoq o'rta ta'limga nutqni rivojlantirish va bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashning samarali usullari ko'rib chiqiladi. Nutqni o'stirishda ta'limga interaktiv shakllaridan foydalanish, ijodiy yondashuv va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llari bayon etiladi. Shuningdek, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni o'qishga jalb qilish, ularning qiziqishlarini oshirish va shaxsiy yondashuvni qo'llash strategiyalari tahlil qilinadi. Maqolada berilgan tavsiyalar pedagogik jarayon samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Nutqni rivojlantirish, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar, pedagogik yondashuv, interaktiv usullar, motivatsiya, shaxsiylashtirilgan ta'lif.

Ta'lif jarayonida o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish va bilimlarini samarali o'zlashtirish muhim ahamiyatga ega. Nutq nafaqat fikrlarni ifodalash vositasi, balki o'quvchilar o'rtasidagi muloqotni rivojlantirishning asosiy omilidir. Shu bilan birga, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash murakkab, ammo ijodkor yondashuv talab etadigan jarayon sanaladi.

Nutq — tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli. Nutq deganda uning og'zaki va yozma ravishda namoyon bo'lishidagi jarayonlar, ya'ni so'zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar) tushuniladi.

Lingvistik nazariyada nutq tushunchasi muayyan til jamoasida qabul qilingan ifoda vositalari tizimi hisoblangan mavhum til tushunchasiga hamda ijtimoiy borliqning eng harakterli ko'rinishlaridan bo'lgan aniq, bir qadar umumiyoqtil tushunchasiga qarama-qarshi qo'yiladi. Boshqa odamlar xulqatvori va faoliyatiga ta'sir ko'rsatish

maqsadida ularga axborot, xabar yetkazishga xizmat qiladigan asl nutq, ya’ni gapirish, til belgilarining eshitish a’zolari tomonidan idrok qilinadigan (ovoz yozib oluvchi uskunalar yordamida qayd etiladigan va qayta takrorlanadigan) artikulyasiyasi tarzida yoki ushbu belgilarning yozuvda shartli aks etishi tarzida yuzaga chiqadi.

Nutq faoliyati 2 turga bo ‘linadi:

1. Monologik nutq — so‘zlovchining o‘ziga qaratilgan, boshqa shaxsning tinglash va javob berishini e’tiborda tutmaydigan nutq shakli. Ayrim dramatik asarlarda personajning Monologik nutqi tomoshabinga qaratilgan bo‘ladi. Monologik nutq nasriy asarlarda ham bor. Nazmda esa asosiy nutq shakllaridan biri hisoblanadi. Ba’zan Monologik nutqda asarning kulminatsion nuqtasi bayon etiladi. Monologik nutq uchun, odatda, tuzilish va mazmun jihatdan o‘zaro bog‘liq, o‘ziga xos kompozitsion qurilishga va mantiqiy tugallikka ega bo‘lgan matnning ma’lum bo‘lagi xos bo‘ladi.
2. Dialogik ravon nutqni rivojlantirishga doir maxsus mashg‘ulotlar suhbat metodi (suhbat) va imitatsiya metodi asosida o‘tkaziladi.

Mazkur metodlar ko‘pincha quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:

1. Tayyoragarlik suhbat (so‘zlashish) usullari;
2. Teatrlashtirish usullar.

Tayyorlangan suhbatning quyidagi vazifalari mavjud:

1. To‘g‘ridan-to‘g‘ri – bolalarni suhbatlashishga, ya’ni suhbatdosh so‘zlarini bo‘imasdan tinglash, luqma tashlash uchun qulay paytni kutgani holda o‘zini tutib turish, suhbatdoshi uchun tushunarli qilib so‘zlash;
2. Yo‘ldosh – talaffuz va grammatik ko‘nikmalarni mashq qilish, ma‘lum so‘zlar ma‘nosini aniqlashtirish. Suhbat jarayonida tarbiyachi savollar, topishmoqlar, badiiy so‘z kabi turli usullardan foydalanadi.

Bu usullarning barchasi suhbat paytida bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yo‘naltirish, nutqiy muloqotni ta‘minlash, bolalar fikrlarini, ularning diqqat-e’tiborlarini, xotiralarini, emotsiyalarini faollashtirishga yordam beradi. Ammo suhbat olib borishning yetakchi usuli savollar hisoblanadi.

Bolalar bilan suhbatning muvaffaqiyati va pedagogik samaradorligi ko‘p jihatdan savollarning to‘g‘ri qo‘yilishiga bog‘liq bo‘ladi. Savollar berish hamda uning javobining murakkabligi va qiyinligini asta-sekin kuchaytirib borishni bilish eng asosiy va zarur pedagogik odatlardan biridir.

Savol qo‘yish – bolalar oldiga ularning kuchi yetadigan darajadagi nutqiy fikrlash vazifasini qo‘yish demakdir. Ayni paytda u xaddan tashqari osonlashtirib yuborilmasligi lozim, chunki bunday vazifani qo‘yishdan maqsad –bolalarni fikrlashga, eslashga undashdan iborat.

Qanday fikrlash-nutqiy vazifalarini qo‘yishiga qarab, savollarni reproduktiv, qidiruv va muammoli savollarga ajratish mumkin.

Dialogik nutqni rivojlantirishga doir maxsus mashg“ulotlarning ahamiyati.

Dialogik ravon nutqni rivojlantirishga doir maxsus mashg‘ulotlar suhbat metodi (suhbat) va imitasiya metodi asosida o‘tkaziladi.

Mazkur metodlar ko‘pincha quyidagi usullar yordamida amalgaga oshiriladi:

1. Tayyorgarlik suhbat (so‘zlashish) usullari;
2. Teatrlashtirish usullari (imitasiya, qayta aytib berish).

Tayyorlangan suhbatning quyidagi vazifalari mavjud:

1. To‘g‘ridan-to‘g‘ri – bolalarni suhbatlashishga, ya‘ni suhbatdoshi so‘zlarini bo‘lmasdan tinglash, luqma tashlash uchun qulay paytni kutgani holda o‘zini tutib turish, suhbatdoshi uchun tushunarli qilib so‘zlash;
2. Yo‘ldosh – talaffuz va grammatik ko‘nikmalarni mashq qilish, ma‘lum so‘zlar ma‘nosini aniqlashtirish. Suhbat jarayonida tarbiyachi savollar, topishmoqlar, badiiy so‘z kabi turli usullardan foydalanadi.

Bu usullarning barchasi suhbat paytida bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yo‘naltirish, nutqiy muloqotni ta‘minlash, bolalar fikrlarini, ularning diqqat-e‘tiborlarini, xotiralarini, emotsiyalarini faollashtirishga yordam beradi.

Nutqni rivojlantirish usullari:

1. O‘yin va interaktiv mashg‘ulotlar: O‘quvchilarning faol ishtirokini ta‘minlash uchun ro‘lli o‘yinlar, savol-javoblar va hikoya yaratish mashqlari tashkil etiladi.

2. O‘yinli vazifalar orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq va mantiqiy bayon qilishni o‘rganadilar.
3. Audiovizual texnologiyalardan foydalanish: Nutqiy faoliyatni rivojlantirishda multimediali darslar, videolar va audio yozuvlar yordamida o‘quvchilarni faol jalb qilish mumkin.
4. Ijodiy yozuv mashqlari: O‘quvchilarga hikoyalar, essey va dialoglar yozdirish orqali nutqiy rivojlanishni rag‘batlantirish. Taqdimotlar tayyorlash va jamoa oldida chiqish qilishni tashkil etish.

Bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishslash va ularni bilim darajalarini oshirish quydagilardan iborat:

1. Individual yondashuv: O‘quvchining bilim darajasini aniqlash va individual rivojlanish rejasini tuzish. Oson va tushunarli topshiriqlardan boshlash orqali o‘quvchiga ishonch bag‘ishlash.
2. Motivatsiya va qo‘llab-quvvatlash: Rag‘batlantiruvchi so‘zlar va mukofotlar yordamida o‘quvchini o‘qishga qiziqtirish. Kichik muvaffaqiyatlarini katta yutuq sifatida nishonlash.
3. Jamoaviy ishslash: O‘quvchining kuchli tengdoshlari bilan ishlashini ta’minlash. Guruh bilan vazifalarni ishslash orqali bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchining ishtirokini rag‘batlantirish.
4. Amaliy mashg‘ulotlar: Fan bo‘yicha qiziqarli tajribalar, loyihamalar va topshiriqlar yordamida o‘quvchilarni faollashtirish. Masalalar va amaliyotga oid topshiriqlarni vizual shakllarda tushuntirish.

Bundan tashqari, bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab muammolar mavjud, shuning uchun yechimning bir qismi muammolarning o‘ziga xos kombinatsiyasini diagnostika qilishda yotadi:

- ✓ Talaba haqiqatan ham boshqalarga ega bo‘lgan bilimga ega emas va buni oshkor qilishdan qochadi yoki ular "bilmayman" desa, ular tom ma’noda bilmaydilar.
- ✓ O‘quv dasturining ushbu sohasiga nisbatan talabaning o‘zini o‘zi qadrlashi nisbatan past;

- ✓ Ular noto‘g‘ri yoki ahmoqona ko‘rinishdan tashvishlanadilar, shuning uchun ular biror narsani bilishlariga qaramay, ular passivlikni himoya sifatida ko‘rsatishadi.
- ✓ Dars topshiriqlari va savol-javob, boshqalar o‘ylayotgan va gaplashayotganda, ular o‘zlarini ortda qoldirishga imkon beradi, shuning uchun ular to‘liq foyda olishadi.
- ✓ Talaba kechiktirish atrofida yomon odatlarni shakllantirgan va harakatsizlikdan chiqib, boshlash uchun yordamga muhtoj.¹

O‘quv dasturiga xos bilim va ishonchdan tashqarida bo‘lgan asosiy hissiy muammolar mavjud bo‘lib, ular umumiy motivatsiyaning etishmasligiga olib keladi.

Xulosa qilib aytkanda, nutqni rivojlantirish va bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishslashda individual va ijodiy yondashuvdan foydalanish muhim. Interaktiv usullar, motivatsiya va shaxsiy yondashuv ta’lim jarayonining sifatini oshiradi va o‘quvchilarning qiziqishini orttiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizzxo‘jayev A. "Pedagogika asoslari". Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2007.
2. Vygotskiy L.S. "Rivojlanish psixologiyasi". Moskva, 1986.
3. Karimov B. "Nutq madaniyati va kommunikatsiya". Toshkent: Fan, 2012.
4. Zamonaviy ta’lim metodikasi bo‘yicha o‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2019.
5. Naimova M. "O‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasini shakllantirish". Ilmiy maqolalar to‘plami, 2020.

¹ Naimova M. "O‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasini shakllantirish". Ilmiy maqolalar to‘plami, 2020.